

**KLASSIK IQTISODIY TA'LIMOT EVOLYUTSIYASI: ADAM SMITHDAN
DAVID RICARDOGACHA BO'LGAN ILMIIY QARASHLAR.**

Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna

Farg'ona davlat texnika universiteti. Assistenti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.04.2026

Revised: 30.04.2026

Accepted: 01.05.2026

KALIT SO'ZLAR:

Klassik iqtisodiy maktab, Adam Smith, David Ricardo, qiymat nazariyasi, mehnat taqsimoti, mehnat nazariyasi, yer rentasi, taqsimot munosabatlari, iqtisodiy fikr evolyutsiyasi, iqtisodiy ta'limotlar, samaradorlik.

Mazkur maqolada klassik iqtisodiy maktabning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari Adam Smith dan David Ricardo gacha bo'lgan davr kesimida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda qiymat nazariyasi, mehnatning roli, taqsimot munosabatlari hamda ishlab chiqarish xarajatlari konsepsiyalarining evolyutsiyasi yoritiladi. Xususan, Adam Smith tomonidan ilgari surilgan "ko'rinmas qo'l" tamoyili va mehnat taqsimoti g'oyalari, shuningdek, David Ricardoning qiymatning mehnat nazariyasi, yer rentasi va taqsimotga oid qarashlari o'zaro qiyosiy tahlil asosida o'rganiladi. Maqolada klassik iqtisodiy ta'limotning zamonaviy iqtisodiy nazariyalar shakllanishiga ta'siri hamda uning amaliy ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy kategoriyalar, jumladan, tannarx, qiymat va samaradorlik tushunchalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Mahsulot tannarxi elementlarining shakllanish jarayonini chuqur anglash uchun nazariy yondashuvlarni tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tannarx shakllanishi turli iqtisodiy maktablar tomonidan turlicha talqin qilingan bo'lib, bu yondashuvlar ishlab chiqarish xarajatlarining mohiyati, tuzilishi va boshqaruv mexanizmlarini izohlashga xizmat qiladi.

Avvalo, klassik iqtisodiy maktab vakillari - Adam Smith va David Ricardo qarashlarida tannarx ishlab chiqarish xarajatlari orqali belgilanadigan iqtisodiy kategoriya sifatida talqin etiladi. Ularning nazariyasiga ko‘ra, mahsulot qiymati asosan mehnat sarfi bilan belgilanadi, tannarx esa ushbu qiymatning puldagi ifodasi sifatida shakllanadi. Bu yondashuv tannarxni ishlab chiqarish omillari, xususan mehnat xarajatlari bilan bevosita bog‘laydi. A. Smit o‘zining “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot” asarida ta’kidlashicha, mahsulot qiymati jamiyatda sarflangan mehnat bilan belgilanadi va ishlab chiqarish xarajatlari narx shakllanishining asosiy omili hisoblanadi. U “tabiiy narx” tushunchasini kiritib, narx tarkibiga ish haqi, foyda va renta kirishini asoslab bergan. Bu esa xarajatlar nazariyasining dastlabki shakli sifatida qaraladi.¹

D. Rikardo esa qiymat nazariyasini yanada rivojlantirib, mahsulot qiymatini asosan mehnat sarfi bilan bog‘lagan. U “Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish prinsplari to‘g‘risida” asarida ishlab chiqarish xarajatlari uzoq muddatli narxni belgilovchi asosiy omil, ekanligini yoritib bergan. Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda ham ushbu yondashuv o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Jumladan, Pei (2024) tadqiqotida klassik mehnat qiymati nazariyasi zamonaviy iqtisodiy tizimlar sharoitida qayta ko‘rib chiqilib, uning resurslar taqsimoti va ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilishdagi ahamiyati ta’kidlanadi. Ushbu tadqiqotda Rikardo qarashlari global iqtisodiyot, texnologik rivojlanish va kapital intensiv ishlab chiqarish sharoitida qayta talqin qilinadi.

Shunday qilib, D. Rikardoning qiymat nazariyasi klassik xarajatlar nazariyasini ilmiy jihatdan chuqurlashtirib:



1-rasm. D. Rikardoning qiymat nazariyasi.²

ishlab chiqarish xarajatlari - ayniqsa mehnat sarfi - narx shakllanishining asosiy omili ekanligini isbotlab berdi. Bu yondashuv bugungi kunda ham ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish, tannarxni aniqlash va iqtisodiy samaradorlikni baholashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

¹ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. — М.: Эксмо, 2007. — 960 с.

² Ricardo, D. (1817). On the principles of political economy and taxation. London: John Murray.

K. Marks esa klassik nazariyani chuqurlashtirib, qiymatni yaratishda mehnatning markaziy rolini asoslab bergan hamda qo‘shimcha qiymat nazariyasini ishlab chiqqan. U “Das Kapital” asarida klassik siyosiy iqtisodiyotdagi qiymat va xarajatlar nazariyasini yanada chuqurlashtirib, uni yangi bosqichga olib chiqdi³.

A. Smit va D. Rikardo qarashlarini rivojlantirgan holda, qiymatning asosini ijtimoiy zaruriy mehnat sarfi tashkil etishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Marksning fikricha, tovar qiymati uni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan o‘rtacha mehnat vaqtiga bog‘liq bo‘lib, bu mehnat ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi.

Karl Marks quyidagicha yozadi: “Tovarning qiymati uni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy zarur mehnat vaqti miqdori bilan belgilanadi.” Ushbu iqtibos Marks nazariyasining markaziy g‘oyasini ifodalaydi. Ya’ni, har qanday mahsulot qiymati individual emas, balki jamiyat miqyosida zarur bo‘lgan o‘rtacha mehnat sarfi bilan belgilanadi. Shuningdek, Marks klassik iqtisodchilardan farqli ravishda, qiymat va ishlab chiqarish xarajatlari o‘rtasidagi munosabatni chuqurroq tahlil qilib, qo‘shimcha qiymat tushunchasini ishlab chiqdi. Unga ko‘ra, ishchi tomonidan yaratilgan qiymat uning ish haqi bilan to‘liq qoplanmaydi va ortiqcha qismi kapitalist tomonidan o‘zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagi iqtibosda o‘z ifodasini topgan:

Qiymat (narx) = Ish haqi + Foyda + Renta

Mazkur yondashuv ishlab chiqarish xarajatlari tarkibini yangicha talqin qiladi. Marksga ko‘ra, xarajatlar nafaqat ishlab chiqarish resurslari yig‘indisi, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning natijasi sifatida ham qaraladi. Bundan tashqari, Marks ishlab chiqarish xarajatlarini ikki qismga ajratadi:

– doimiy kapital (constant capital) - xom ashyo, asbob-uskunalar va boshqa moddiy resurslar

– o‘zgaruvchan kapital (variable capital) - mehnatga sarflanadigan xarajatlar

U quyidagicha ta’kidlaydi:

“Doimiy kapital yangi qiymat yaratmaydi, balki o‘z qiymatini mahsulotga o‘tkazadi, o‘zgaruvchan kapital esa yangi qiymat yaratadi.”⁴

Demak, yangi qiymat faqat mehnat orqali yaratiladi, qolgan xarajatlar esa mavjud qiymatni mahsulotga ko‘chiradi.

3 Marx, K. (1867). Capital: A critique of political economy (Vol. 1). Hamburg: Otto Meissner.

4 Marx, K. (1867). Capital: A Critique of Political Economy, Volume I. Hamburg: Otto Meissner Verlag.

Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda ham Marksning ushbu yondashuvi o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Xususan, (Ishkara, 2025) tadqiqotida Marksning qiymat nazariyasi global iqtisodiy tizim, kapital harakati va ekologik muammolar bilan bog'liq holda qayta talqin qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ishlab chiqarish xarajatlari va qiymat o'rtasidagi bog'liqlik zamonaviy sanoat tarmoqlarida, jumladan, to'qimachilik sanoatida ham dolzarb hisoblanadi.

Shunday qilib, K. Marks tomonidan ishlab chiqilgan qiymat va xarajatlar nazariyasi klassik iqtisodiyotdagi yondashuvlarni chuqurlashtirib, ishlab chiqarish xarajatlarini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liq holda tushuntirib beradi. Ushbu nazariya zamonaviy iqtisodiy tahlil, ayniqsa tannarxni shakllantirish va uni kamaytirish masalalarini o'rganishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

1.1-jadval

Klassik siyosiy iqtisodiyot vakillari: Smit - Rikardo - Marks taqqoslovchi tahlili.⁵

№	Tahlil mezon	Adam Smith	David Ricardo	Karl Marx
1	Qiymat nazariyasining asosi	Mehnat qiymat manbai, lekin daromadlar bilan bog'langan	Mehnat qiymatning asosiy va hal qiluvchi Manbai	Ijtimoiy zaruriy mehnat qiymatning yagona manbai
2	Narx shakllanishi	Tabiiy narx = ish haqi + foyda + renta	Narx ishlab chiqarish xarajatlari bilan belgilanadi	Narx qiymatning puldagi ifodasi, qo'shimcha qiymat mavjud
3	Mehnatning roli	Qiymat o'lchovi sifatida qaraladi	Qiymatni belgilovchi asosiy omil	Yangi qiymat yaratuvchi yagona omil
4	Ishlab chiqarish xarajatlari	Narxning asosiy tarkibi sifatida qaraladi	Uzoq muddatli narxni belgilovchi omil	Doimiy va o'zgaruvchan kapitalga ajratiladi
5	Xarajatlar nazariyasining mohiyati	Xarajatlar narxni belgilaydi	Xarajatlar narxning asosiy determinanti	Xarajatlar ijtimoiy

5 Muallif ishlanmasi

				munosabatlar natijasi
6	Tannarx tushunchasiga ta'siri	Tannarx tarkibini aniqlashga asos bo'lgan	Tannarxni mehnat bilan bog'lagan	Tannarxni ijtimoiy ishlab chiqarish tizimi bilan bog'lagan

Neoklassik maktab vakillari, jumladan Alfred Marshall “Iqtisodiyot prinsplari”, deb nomalagan asarida tannarx shakllanishiga chegaraviy (marjinal) yondashuv asosida izoh beriladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tannarx nafaqat o‘rtacha xarajatlar, balki qo‘shimcha (marjinal) xarajatlar orqali ham aniqlanadi. Bu esa korxonalariga ishlab chiqarish hajmini optimallashtirish va maksimal foydaga erishish imkonini beradi. Shu jihatdan, tannarxni shakllantirish jarayoni talab va taklif o‘zaro ta’siri bilan ham uzviy bog‘liq deb qaraladi.⁶

Keyingi muhim yondashuv institutsional iqtisodiyot doirasida shakllangan bo‘lib, uning asosiy vakillaridan biri Ronald Coase hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, tannarx tarkibiga faqat ishlab chiqarish xarajatlari emas, balki tranzaksiya xarajatlari - ya’ni axborot izlash, shartnomalar tuzish va nazorat qilish bilan bog‘liq xarajatlar ham kiradi. Bu yondashuv ayniqsa zamonaviy korxonalarda tannarxni boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy boshqaruv hisobining yondashuvlarida tannarx shakllanishi strategik nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Xususan, Activity-Based Costing (ABC-faoliyatga asoslangan tannarx hisoblash) usuli xarajatlarni faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlash orqali mahsulot tannarxini aniqlashni taklif etadi. Bu yondashuv an’anaviy usullarga nisbatan aniqroq natijalar berib, korxonalarda resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Shuningdek, target costing (maqsadli tannarx) yondashuvi bozor talabidan kelib chiqib, tannarxni oldindan belgilash va unga erishish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Chet olimlari Robert Kaplan va Robin Cooper bu usulning asoschilari bo‘lib, ular ABC usuli xarajatlarni faoliyatlar kesimida taqsimlash orqali mahsulot tannarxini aniqlashda an’anaviy usullarga nisbatan aniqroq natija berishini isbotlaganlar. Target Costing (maqsadli tannarx) bo‘yicha Yapon menejment maktabi olimlari Hiroshi Tanaka, Masayasu Tanaka o‘z ilmiy izlanishlarida Target costing bozor narxiga asoslanib, korxonada tannarxni oldindan belgilashini va shu darajaga erishish uchun xarajatlarni boshqarish zarurligini isbotlaganlar.


6 Marshall, A. (1890). *Principles of economics*. London: Macmillan.

Bundan tashqari, “hayotiy sikl tannarxi” (life-cycle costing) konsepsiyasi mahsulotning butun hayot davri - loyihalash, ishlab chiqarish, foydalanish va utilizatsiya bosqichlaridagi xarajatlarni qamrab oladi. Bu esa tannarxni kompleks va uzoq muddatli yondashuv asosida boshqarish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, tannarx shakllanishining nazariy yondashuvlari evolyutsion rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Klassik yondashuvlar tannarxni ishlab chiqarish xarajatlari bilan izohlasa, neoklassik va institutsional nazariyalar uni kengroq iqtisodiy va boshqaruv omillari bilan bog‘laydi. Zamonaviy yondashuvlar esa tannarxni strategik boshqaruv vositasi sifatida ko‘rib, korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz korxonalarida tannarxni pasaytirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir (1-rasm).

1-rasm. Tannarxni pasaytirishning asosiy yo‘nalishlari⁷



Mexnat unumdorligini oshirish, xomashyo va material, yoqilg‘i va elektr energiya xarajatlarini kamaytirish, xizmat ko‘rsatish va boshqarish sarflarini qisqartirish, ishlab chiqarishdan tashqari, xarajatlarni tejash sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirishning eng muhim manbalari hisoblanadi.

⁷ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

Mexnat unumdorligini oshirish uchun yangi texnika, texnologiya jarayonlarini va ishlab chiqarishni o‘stirish yoki tashkil etishning ilg‘or usullarini joriy qilish orqali har bir mexnatchi tomonidan tayyorlanayotgan mahsulotni ko‘paytirish kerak. Bu xolla har bir mahsulot birligiga sarflanadigan ish haqi qisqaradi, ammo ishchining umumiy ish xaki esa ortib boradi. Mexnat unumdorligi ish hakiga nisbatan jadal o‘sgandagina tannarx pasayadi.

Mexnat unumdorligining o‘shish moxiyati shundan iboratki, bunda mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan jonli mehnat ulushi kamayadi, il gari sarflangan mehnatning ulushi esa ortadi, biroq mahsulot birligi uchun ketadigan mehnat sarfi qisqaradi.

Material, yoqilg‘i va elektr energiya xarajatlarini kamaytirish uchun ularni tejab sarflash, qimmatbaho materiallarni arzon, lekin yaxshi materiallar bilan almashtirish, ularni sotib olish va korxonaga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan sarflarni qisqartirish kerak bo‘ladi.

Xizmat ko‘rsatish va boshkarish uchun ketadigan xarajatlarni qisqartirishga esa tarmoq va korxonalaridagi ma‘muriy-boshqaruv apparatining sarflarini kamaytirish, asbob-uskuna, bino va inshootlarni saklash, yoritish, isitish uchun ketadigan mablag‘larni tejab-tergab sarflash orqali erishiladi.

Unumsiz xarajatlarni (jarima to‘lash, penya va hokazolar) tugatish mahsulot tannarxini pasaytirishda muxim ahamiyat kasb etadi.

Texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni ratsional joylashtirish, ishlab chiqarish va mehnatni korxonaning ichida uyushtirishni yaxshilash mahsulot tannarxini pasaytirishni ta‘minlovchi omillar hisoblanadi. Masalan, texnika taraqqiyoti mahsulot tannarxini pasaytirishning barcha manbalariga ta‘sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizatsiyalash hamda kompleks avtomatlashtirish, kimyolash mahsulot tayyorlash uchun sarflanadigan solishtirma xarajatlarni kamaytiradi. Har bir korxonada mahsulot tannarxini pasaytirish darajasini hisoblash uchun, eng avvalo, undagi zahira, foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash kerak. Ular ko‘zga tashlanadigan, yuzaki, juda murakkab, ko‘z ilg‘amaydigan bo‘lishi mumkin. Faqat chuqur, har taraflama iqtisodiy-texnik tahlildan keyin ularni aniqlash, topish mumkin bo‘ladi.

Zahiralar xar xil belgilarga qarab guruhlariga ajratilishi mumkin. Ular, eng avvalo, to‘planish joyiga kura, ichki ishlab chiqarish va tashki rezervlarga ajraladi.

Tashki rezervlarga tarmoqlar bo‘yicha rezervlar, regional (hududiy) va tabiiy-ekologik rezervlar kiradi.

Rezervlar safarbar etilishi muddati bo‘yicha joriy va istiqbolli rezervlarga ajraladi.

Rezervlarni ishlab chiqarish jarayonlarining elementlari bo'yicha ham guruxlarga bo'lish mumkin. Bunday rezervlarga mexnat, moddiy va asosiy fondlardan foydalanish rezervlari kiradi.

Korxonaga yoki tarmoq faoliyatini tahlil etish uchun rezervlarni ikkiga bo'lib ko'rish mumkin:

- tashkiliy-texnikaviy rezervlar;
- ijtimoiy - iqtisodiy rezervlar.

Yuqorida keltirilgan barcha rezervlar, ya'ni foydalanilmayotgan imkoniyatlarni safarbar etish, ishga solish xamda shu asosda tannarxni keskin pasaytirish uchun bir qator omillardan keng foydalanish va ularni hisoblab chiqish kerak.

Mahsulot tannarxini rejalashtirish mehnat, moddiy va moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanish asosida ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishishga qaratilgandir. Tannarx rejasi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Mahsulot tannarxini pasaytirish rejasi;
2. Mahsulot tannarxini kalkulyakiyalash;
3. Ishlab chiqarish xarajatlari smetasi;
4. Tovar va sotiladigan mahsulot tannarxining hisobi.

Tannarx rejasi, ikki bosqichda ishlab chiqiladi. Birinchi bosqichda, eng avvalo, hisobot yilida rejalarning bajaralishi tahlil etiladi, mahsulot tannarxini pasaytirish, foyda va rentabellikni oshirish rezervlari aniqlanadi va aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlari belgilanadi, reja loyixasi ishlab chiqiladi. Ikkinchi bosqichda esa rejaning uzil-kesil loyixasi ishlab chiqiladi va bu reja topshiriqlari korxonaga bo'limlariga yetkaziladi.

Mahsulot tannarxi va uni pasaytirish topshiriqlari davlat va korxonaga rejasida yuqoridan belgilanmaydigan, aksincha, korxonalarining o'zida hisob qilinadigan ko'rsatkich hisoblanadi. Shunga qaramay, mahsulot tannarxi sanoat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib qolaveradi. Chunki sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirish ishlab chiqarishning rentabellik darajasini oshirish rezervlaridan biri hisoblanadi. Mahsulot tannarxi qanchalik past bo'lsa, albatta, boshqa shart-sharoitlar bir xil bo'lgan holda (masalan, xuddi o'sha mahsulotning narxi barkaror bo'lganda) uni sotishdan kelgan foyda xam shunchalik ko'p bo'ladi.

Uchinchidan - qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish.

Shu maqsadda yaqinda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiyotimizdagi yetakchi tarmoq va sohalarda mahsulot tannarxini kamida 20 foiz tushirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi takliflari ma’qullanganini qayd etish lozim.

Buning uchun har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ekt o‘z faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha tannarxni pasaytirish omillari to‘g‘risida keng va chuqur tasavvurga ega bo‘lishi lozim.

Mahsulot tannarxini kamaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi - bu resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni nazorat qilish, texnologik va boshqaruv instrumentlarini uyg‘un qo‘llash orqali mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan sarflarni kamaytirishga xizmat qiluvchi usullar, vositalar va boshqaruv choralarning yaxlit tizimidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev Y.A. Iqtisodiy nazariya. – T.: Iqtisod-Moliya, 2020. – 512 b.
2. G‘ulomov S.S., Sharifxo‘jayev M.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 480 b.
3. Raximov R.X. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 356 b.
4. Nabiyev E.N. Iqtisodiy nazariya va bozor munosabatlari. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 310 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Iqtisodiy nazariya fanidan o‘quv qo‘llanma. – T.: 2020. – 290 b.